

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “YULDUZ”
SHE’RI TAHLILI***Nurmaxmatova Firuza Rasulovna**O‘zbekiston Davlat Jahon tillari**Universiteti Ingliz filologiyasi**Fakulteti 2-bosqich talabasi**feruzanurmaxmatova2005@gmail.com*

Annotatsiya: XX asr o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida turli millat va madaniyat vakillarining ijodiy hamkorligi natijasi o‘laroq rang-barang, falsafiy teran she’riyat shakllandi. Aleksandr Arkadevich Faynberg mana shunday o‘zgarishlar, hamonagliklarga bor adabiy muhitda o‘z ovozi, ijodiy iste’dodi bilan ajralib turgan, el orasida shuhrat va hurmat qozonga jonkuyar ijodkorlardan biridir. U o‘z asarlarida inson qalbining eng tubida joylashgan torlarni nazokat bilan cherta olgan, o‘sha davr jamiyati bilan birga hayotda yuzaga keladigan murakkab savollarga she’riy javob izlagan. U o‘zi yashagan davr ma’naviy muhitini badiiy so‘z vosiyasida yoritib bergan yuksak mahorat egasidir. Faynberg she’riyati bir o‘qib ko‘rganda sodda va ravon tuyuladi, biroq mazmun jihatdan nihoyatda chuqur, bir necha marta diqqat bilan o‘qiganda ham yangi ma’nolar anglatadigan falsafiy mushohalar to‘plami. U yozgan har bir satrda tashqarida ro‘y berayotgan voqelik bilan ichki ruhiy olam o‘rtasida suhbat kechadi. Shoir inson tabiatini, unga xos fazilatlarni tabiat manzaralari, osmon, jismlar, dengiz, shamol, yorug‘lik va zulmat timsollarini vositasida tasvirlab beradi. Bu obrazlar shunchaki she’riy bezak emas, balki ramziylik asnosida yoritilgan inson hayotidir. Ayniqsa yorug‘lik va zulmat to‘qnashuvi, hayot va o‘lim haqidagi mushohadalar, umid va umidsizlik o‘rtasidagi ziddiyatlar Faynberg lirikasining asosiy mavzularidan hisoblanadi. Shoir ijodida yulduz obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Yulduz qadim o‘tmishdan insoniyat ong-u shurida yo‘l ko‘rsatuvchi belgi, orzu va armon timsoli, baxt va taqdir ramzi sifatida talqin qilinib kelinadi. Faynberg asarlarida yulduz shunchaki osmondagi bir oddiy jism emas, inson ichidan taralib turuvchi yog‘du, shaxsiy taqdir, o‘ziga xos yo‘l va insonning o‘zligini anglatuvchi timsol sifatida xizmat qiladi. Uning she’rlarida yulduz bu- umidning aslo so‘nmaydigan nuri, insonni o‘z mavjudligi asosida his qilish ehtiyoji, qalbning eng chuqur qatlamlarida yashirin orzularning yorug‘ ifodasidir. Aleksandr Arkadevich Faynbergning o‘zi tomonidan yozilgan “Yulduz” she’ri ham shoir she’riyatiga xos mana shunday badiiy-estetik xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan durdona asarlardan hisoblanadi. Mazkur maqola Faynbergning “Yulduz” she’ri tahliliga bag‘ishlanadi.

Abstract: In the development of Uzbek literature of the 20th century, as a result of the creative cooperation of representatives of different nationalities and cultures, a diverse, philosophically profound poetry was formed. Alexander Arkadyevich Feinberg is one of those creative people who, despite such changes and monotonies, stood out with his voice and creative talent in the literary environment, and who was eager to gain fame and respect among the people. In his works, he delicately touched the strings located in the depths of the human soul, and together with the society of that time, he sought poetic answers to complex questions that arose in life. He is a person of high skill who illuminated the spiritual environment of the era in which he lived in the form of artistic words. Feinberg's poetry seems simple and fluent when read once, but it is extremely deep in content, a collection of philosophical reflections that take on new meanings even when read carefully several times. In each line he wrote, There is a dialogue between reality and the inner spiritual world. The poet describes human nature and its inherent qualities through natural landscapes, sky, objects, sea, wind, light and darkness. These images are not just poetic decoration, but human life illuminated by symbolism. In particular, the conflict between light and darkness, observations about life and death, and the contradictions between hope and despair are among the main themes of Feinberg's lyrics. The image of a star is of particular importance in the poet's work. Since ancient times, a star has been interpreted as a guiding sign in the consciousness of humanity, a symbol of dreams and aspirations, a symbol of happiness and destiny. In Feinberg's works, a star is not just an ordinary object in the sky, but serves as a symbol of rain emanating from within a person, personal destiny, a unique path and a person's identity. His In his poems, a star is the unfading light of hope, the need to feel a person based on his own existence, a bright expression of dreams hidden in the deepest layers of the soul. The poem "Star", written by Alexander Arkadyevich Feinberg himself, is also considered one of the masterpieces that embodies such artistic and aesthetic features inherent in the poet's poetry. This article is devoted to the analysis of Feinberg's poem "Star".

Аннотация: В развитии узбекской литературы XX века, в результате творческого сотрудничества представителей разных национальностей и культур, сформировалась многогранная, философски глубокая поэзия. Александр Аркадьевич Файнберг — один из тех творческих людей, которые, несмотря на такие перемены и монотонность, выделялись своим голосом и талантом в литературной среде и стремились к славе и уважению среди народа. В своих произведениях он тонко затрагивал струны, расположенные в глубинах человеческой души, и вместе с обществом того времени искал поэтические ответы на сложные вопросы, возникающие в жизни. Он — человек высокого мастерства, осветивший духовную среду эпохи, в которой он жил, в форме художественного слова. Поэзия Файнберга при однократном прочтении кажется

простой и легковесной, но по содержанию она чрезвычайно глубока, это собрание философских размышлений, которые обретают новые смыслы даже при внимательном многократном прочтении. В каждой строке он писал: «Существует диалог между реальностью и внутренним духовным миром». Поэт описывает человеческую природу и её неотъемлемые качества через природные пейзажи, небо, предметы, море, ветер, свет и тьму. Эти образы — не просто поэтическое украшение, а человеческая жизнь, освещенная символикой. В частности, конфликт света и тьмы, размышления о жизни и смерти, противоречия между надеждой и отчаянием — вот основные темы лирики Файнберга. Особое значение в творчестве поэта имеет образ звезды. С древних времен звезда интерпретировалась как путеводный знак в сознании человечества, символ мечтаний и стремлений, символ счастья и судьбы. В произведениях Файнберга звезда — это не просто обычный объект на небе, а символ дождя, исходящего изнутри человека, личной судьбы, уникального пути и идентичности личности. В его стихах звезда — это неугасаемый свет надежды, потребность человека чувствовать себя на основе собственного существования, яркое выражение мечтаний, скрытых в самых глубоких слоях души. Стихотворение «Звезда», написанное самим Александром Аркадьевичем Файнбергом, также считается одним из шедевров, воплощающих в себе такие художественно-эстетические черты, присущие поэзии поэта. Данная статья посвящена анализу стихотворения Файнберга «Звезда».

Kalit so‘zlar: Yulduz timsoli, chiroqchi obrazi, falak va inson, umid va zulmat, taqdir falsafasi, ichki nur, ramziy tasvir, lirik qahramon, ruhiy izlanish, falsafiy lirika, hayot va o‘lim qarama-qarshiligi.

Keywords: Star symbol, lamplighter image, sky and man, hope and darkness, philosophy of fate, inner light, symbolic image, lyrical hero, spiritual quest, philosophical lyrics, contrast between life and death.

Ключевые слова: символ звезды, образ фонарика, небо и человек, надежда и тьма, философия судьбы, внутренний свет, символический образ, лирический герой, духовный поиск, философская лирика, контраст между жизнью и смертью.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Yulduz” she’ri shoir o’z ijodida olib bordan badiiy-falsafiy izlanishlarning eng yaxshi namunalaridan bo’lib, unda insonning o’z baxti, o’z nuri, o’z yulduziga bo’lgan talabi, xohishi aks ettiriladi. Asarda lirik qahramon falakka murojaat qiladi, chek-chegarasi yo’q dengiz va zulmat qarshisida ham ichki umid uchqunini ham saqlab qolishga kuchli harakat qiladi. Bu she’r insonning mavjudlik ma’nosini, taqdir va sabr-iroda masalalari haqidagi teran falsafiy

mulohazalarni o'z ichiga oladi. Shu bois she'rda yulduz nafaqat poetik iltijo, balki inson ruhidagi qat'iy va mustaqil ovoz sifatida ham tushuntirilishi mumkin.

YULDUZ

Har qaysi yulduzga keladi navbat,
 Har bir orzu-niyat bo'lur ijobat.
 Kuylovchi chiroqchi osmonda kezib,
 Har nurni vaqtida yoqadi albat.
 Ko'pirib qoyaga sakraydi dengiz,
 Qirg'oqqa tushaman, shamol sochar tuz.
 To hayot ekanman, sayyor chiroqchi,
 Falakda yoqib ber men uchun yulduz.
 Mayli, dengiz cheksiz,
 zulmat hamma yoq.
 Mayliga, umid yo'q,
 mayli, yo'q mayoq.
 Chiroqchi,
 ajalim yetgan bo'lsa ham,
 Baribir o'zimning yulduzimni yoq.
 Shodlik keltirarmi,
 keltirarmi g'am,
 Bilmayman, chiroqchi,
 menga ushbu dam.
 Faqat boshim uzra yoqib ber yulduz,
 Menga boshqa narsa kerakmas hech ham.

She'r avvalida shoir umumiy hayotiy qonuniyatlar haqidagi fikrni ilgari suradi: har bir yulduzning o'z navbati bor, har bir orzu bir kuni baribir ro'yobga chiqadi. Bu so'zlar vinsonlarga xos bo'lgan ishonch va umidning ifodasidir. Go'yo hayotdan, yashashdan hech kim bebahra qolmaydi, har kimning o'z payti, o'z baxt-saodatga erishadigan onlari bor. Bu satrlar orqali shoir she'rga umid ohangini jo etadi.

Keyingi misralarda "chiroqchi" obrazi paydo bo'ladi. U osmonda kezib yurib, har bir yulduzni o'z vaqtida yoqadi. Bu berilgan obraz o'zida teran falsafiy ma'noni jamlagan bo'lib, taqdir, ilohiy iroda va yoki hayotni boshqarib turuvchi kuch sifatida talqin etiladi. Lirik qahramon endi mana shu ilohiy kuchga murojaatini boshlaydi. U shunchaki oddiygina hayotni yashashni emas, yashayotgan umr yo'lida o'z yulduziga ega bo'lishni juda xohlaydi. Bu o'rinda yulduz shaxsiy baxt, boshqalar tomonidan tan olinish hissi, ichki nur, o'zlikning yorqin ifodasi sifatida xizmat qiladi.

She'r o'rtalariga kelib hayotning og'ir manzaralari chiziladi: cheksiz dengiz atrofni qolagan zulmat, yo'q mayoq. Bu berilgan obrazlardan inson hayotida yuzma-yuz kelgan sinovlar, to'siqlar, umidsizlik holatlarini tushunish mumkin. Dengiz-hayotning

beqarorligi va murakkabligi, zulmat-inson qalbida hukm surayotgan iztirob onlari, mayoq mavjud emasligi esa lirik qahramonning suyanadigan hech kimi, tayanchi yo'qligini anglatadi. Ammo qahramon umidsizlik iskanjasiga tushib to'xtab qolmaydi, u harakatni davom ettiraveradi. U o'zini ruhlantirgan holda shunday deydi: mayli, dengiz cheksiz bo'lsa ham, mayli umid bo'lmasa ham-baribir o'z yulduzimni yoq.

She'rga tegishli eng muhim jihat shundan iboratki, lirik qahramon hatto o'lim ehtimoli bor ekanligini ham tan olib turadi. "Ajalim yetgan bo'lsa ham" satri inson qanchalar kuchli, shijoatli, umidga to'la bo'lsa ham, u hayot qarshisida ojiz qolishini bildiradi. Yulduz bu yerda oddiy bir jism emas, mavjudlikning isboti, insonning o'z hayotiga ma'no berish xohishi hamdir. Shoir kitobxonni zulmatda qo'rqib ortga chekinmaslikka, o'z nuri, o'z baxti uchun olg'a borishga da'vat etadi.

Asar shuningdek, umid va qat'iyat haqida kuylangan madhiya hamdir. Qahramon quvonch keladi yoki qayg'u mutlaqo bilmaydi, kelajakda uni qanday taqdir qarshilashidan ham bexabar. Biroq unga eng zarur narsa-boshi ustida nur sochib turuvchi yulduz. Bu yulduz uning uchun ruhiy tayanch, ma'naviy yorug'lik manbaidir.

Xulosa qilib aytganda, Aleksandr Arkadevich Faynbergning "Yulduz" she'ri insonning ichki dunyosini, uning qalbi tubida yashirinib yotgan orzulari va ruhiy mustaqilligi to'g'risidagi chuqur falsafiy mushohalarni o'zida mujassamlashtirgan asardir. unga insonning hayotga bo'lgan umid, ishonchi, o'ziligini tanish, anglab yetishga bo'lgan kuchli xohish, o'z nurini ko'rish istagi badiiy yuksak darajada ifoda etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mustaqillik davri o'zbek she'riyati bo'yicha ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: Turon zamin ziyo.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.
3. Aleksandr Arkadevich Faynberg. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, turli yillar nashri.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr.
5. Rasulov A. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Fan nashriyoti.
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>